

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MARDONOV JAHONGIR SHAROFIDDIN O‘G‘LI

**PAXTANI YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALASH AGREGATINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOZALASH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mardonov Jahongir Sharofiddin o'g'li

Paxtani yirik iflosliklardan tozalash agregatini takomillashtirish asosida
tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Мардонов Жахонгир Шарофиддин угли

Повышение эффективности очистки на основе совершенствования
агрегата очистки хлопка от крупных примесей..... 23

Mardonov Jahongir Sharofiddin o'g'li

Increasing the efficiency of cleaning by improving the unit for cleaning
cotton from large impurities..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MARDONOV JAHONGIR SHAROFIDDIN O‘G‘LI

**PAXTANI YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALASH AGREGATINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TOZALASH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5119 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiyev Timur Ortikovich

texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich

texnika fanlari doktori, professor

Abbazov Ilxom Zopirovich

texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSs.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 10 aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi.(Manzil:100100,Toshkentsh.,Shohjahon-5,tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ttesi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№228 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 25 mart kuni tarqatildi.
(2025 yil 25 martdagi № 228-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy tolalarga bo'lgan talab ayniqsa paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning oshishi paxtani qayta ishlash korxonalarida sifatli tola olishda paxta tarkibidagi iflosliklarni samarali tozalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. «Dunyo miqyosida bir yilda 24 mln tonna paxta tolasini ishlab chiqarilishini hisobga olsak», sifatli to'qimachilik matolarini ishlab chiqarishda, energiya va resurstejamkor dastgohlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. To'qimachilik sohasida qator xorijiy mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Turkiya, Hindiston, AQShda ma'lum yutuqlarga erishilib, hozirda qo'llanilayotgan texnologik uskunalarni belgilangan talablar asosida modernizatsiya qilish, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan energiya va resurstejamkor texnologik mashinalar hamda jihozlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlashning uskuna va texnologiyalarini takomillashtirish, zamonaviy uskuna va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish darajasini oshirish, jahon to'qimachilik bozorida raqobadbardosh yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada jumladan, paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalash uchun ishlatiladigan uskunalarining ishchi holati hamda va tozalashga berilganda paxtaning boshlang'ich iflosligiga qarab jarayon to'g'ri tanlanishi bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va ishchi qisimlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish va paxtani tozalash jarayonini ishlash rejimlarini optimallashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikada keng turdagi sifatli mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish¹. Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan paxtani yetishtirishdan boshlab, dastlabki ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsuloti ishlab chiqarishga mo'ljallangan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish, mahalliy xomashyolardan foydalanilgan holda raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlov berishning samarali jihozlari va texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni

klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 21-son "Respublika hududlarida paxta xosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2020-yil 22-iyundagi 397-son "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkor» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tozalash uskunalari va kolosnikli panjaralarini takomillashtirish bo'yicha bir qator chet el olimlari S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.Van Doorn, R.V.Baker, P.A.Boving, W.S.Anthony, R.M.Sutton, J.W.Laird, V.G.Arude, B.M.Norman va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalashning uskuna va texnologiyalari, asosiy ishchi qismlarning ko'rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator olimlar, shu jumladan G.I.Miroshnichenko, S.D.Boltabayev, G.D.Djabbarov, R.Z.Burnashev, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, B.I.Roganov, I.K.Xafizov, A.Rasulov, A.YE.Lugachev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, A.A.Safayev, P.N.Borodin, I.D.Madumarov, SH.SH.Xakimov, X.S.Usmonov, A.P.Mavlyanov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Lekin, chet el va maxalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta tozalash uskunalari va ularning ishchi qismlari tozalash samaradorliklarini oshirish muammosini o'zining optimal yechimini topmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-136 "Paxtani yirik iflosliklardan tozalash agregatini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi UXK rusumli tozalash agregatining kolosnikli panjarasini takomillashtirish va tozalash texnologiyasidagi maqbul joylashuvini tanlash asosida texnologiyaning tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalari va texnologiyalari hamda shu yo'nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

UXK paxta tozalash uskunasi yirik iflosliklardan tozalash seksiyasi bo'yicha tozalash samaradorliklarni tahlil qilish.

arrachali barabanlar seksiyalarida turli konstruksiyadagi kolosnikli panjaralarni tadqiq etgan holda tozalash jarayoniga ta'sirini o'rganish;

tozalash texnologiyasi bosqichlarida kolosniklarni joylashuvini tozalash samaradorligiga ta'sirini tadqiq etish.

takomillashtirilgan kolosnikli panjarani ishlab chiqarish tajriba-sinovlarini o'tkazish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obekti paxtani tozalash uskunasi yirik iflosliklardan tozalash seksiyasi va tozalash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti yirik iflosliklardan tozalash seksiyasidagi kolosnik panjaralar parametrlari, konstruksiyasi va geometrik o'lchamlarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida paxtani dastlabki ishlash nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika usullaridan, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar yordamida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:

tozalash zonasida paxtani qisilishida ta'sir qiladigan kuchlarni hisoblash asosida yirik iflosliklardan tozalash seksiyasida mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud takomillashtirilgan kolosnikli panjara yaratilgan;

kolosniklar bilan o'zaro ta'siridagi paxta bo'lakchalari harakatining differensial tenglamalari asosida paxta bo'lakchalaridan ajralgan mayda iflosliklarni kolosnik diametrining turli qiymatlarida kolosniklar soniga bog'liqligi aniqlangan;

tozalash samaradorligini oshirish maqsadida paxtani tozalash texnologiyasi bosqichlarida takomillashtirilgan kolosnikli panjarani o'rnatilish joylashuvini ta'siri aniqlangan;

kolosnikli panjaraning kolosniklarini o'zaro oraliq masofalarining qiymatlari kichik kvadratik usuli yordamida qurilgan regression modellar tahlili asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qo'yidagilardan iborat:

paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash samaradorligini oshirish maqdadida takomillashtirilgan kolosnikli panjara ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan kolosnikli panjara o'rnatilishi natijasida iflosliklarga paxta bo'lakchalarini qo'shib ketishini oldi oluvchi kolosniklarning o'zaro oraliq masofasi va diametrlari aniqlangan;

tozalanishi qiyin bo'lgan aktiv iflosliklarni ajratish maqsadida tozalash oqimining oxirgi yirik iflosliklardan tozalash seksiyasiga takomillashtirilgan kolosnikli panjara ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxta tarkibidagi iflos aralashmalardan tozalash uskunalari kolosnik panjaralarini nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtaning mavjud va taklif etilayotgan kolosnikli panjaralardagi harakat modeli, kolosnikli panjaralardan o'tayotgan paxta bo'lakchalarini arrachali barabanlar ta'sir zonasidagi harakatini bog'lanishi va paxta xomashyosi tarkibidagi iflos aralashmalarni kolosnikli panjara bilan o'zaro ta'sir zonasida ajralish jarayonini bog'lanishi hamda kolosnikli panjara parametrlari aniqlanganini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yaratilgan yangi kolosnikli panjara paxta xom ashyosining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolgan holda, tozalash uskunasidagi arrachali seksisiyasida paxta bo'lakchalari bilan zarba sonini ko'paytirib tozalash samaradorligini oshirish, to'rtinchi arrachali barabanlar seksisiyasida paxta bo'lakchalarini ajralayotgan chiqindi bilan qo'shib ketmasligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Paxtani tozalash uskunasini tozalash samaradorligini oshirishda uskunaning asosiy texnologik ko'rsatkichlarini ratsional qiymatlarini aniqlash hisobiga tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan uskuna O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining tasarrufiga kiruvchi TST AGRO klaster tarkibidagi Mustaqilik paxta tozalash korxonasida tadbiq etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024 yil 28 avgustdagi 03/25-2287 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tozalash samardorligi 8,42 % ga oshgan, tolaning sinfini oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta va 1ta xalqaro jurnalda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili, ishning maqsadi va vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi, paxtani tozalashning mahalliy texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani tozalashning xorijiy texnika va texnologiyalari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili hamda UXK uskunasi ishlash jarayonini tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxtani yirik iflosliklardan tozalash agregatini nazariy tadqiq etish**" deb nomlangan ikkinchi bobida kolosnikning paxta bo'lakchasi bilan o'zaro ta'sirini nazariy tahlili kolosniklar ta'siridagi paxta bo'lakchalarining harakatini nazariy tahlili, tozalash seksiyalarida takomillashtirilgan kolosniklarni joylashishi va diametrlariga bog'lanish tahlili keltirilgan.

Kolosnikga paxta bo'lakchalarini ta'siri natijasida ma'lum deformasiyalanish va bir nechta kolosniklar ta'sirida titrash yuzaga kelishi natijasida yirik iflosliklardan tozalash samaradorligini ifodalovchi tenglamani keltiramiz. Paxta bo'lakchasiga

kolosniklar ta'sirida $\Delta x = a \cdot \sin(\omega \cdot t)$ ga deformasiyalanib urinma bo'ylab harakatlanishi natijasida titrash yuzaga keladi va Δx qonuniyat bo'yicha o'zgarib turadi va yirik iflosliklardan tozalashga ta'sir qiladi.



1-rasm. Arrachali baraban bilan kolosniklar orasidagi paxta oqimining harakat sxemasi

Shuning uchun paxta bo'lakchasini urinma bo'ylab paxta bo'lakchasini kolosnikga ta'siri natijalarini harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{\vartheta}_\tau = (P + F_{31}) \cdot \cos \alpha - F_{32} \cdot \sin \alpha \quad (1)$$

Bu yerda $P=mg$ - paxta bo'lakchasini og'irligi, m -paxta bo'lakchasini massasi, g -erkin tushish tezlanishi, $F_{el}=\kappa \Delta x$ - elastiklik kuchi, κ -elastiklik koeffitsiyenti, F_{ish} -ishqalanish kuchi. Bu qiymatlarini (1) tenglikka qo'yib, vaqt bo'yicha differensiallaymiz:

$$m \cdot \ddot{\vartheta}_\tau = m \cdot g \cdot \cos \alpha - f \cdot m \cdot g \cdot \sin \alpha + \kappa \cdot a \cdot \cos \alpha \cdot \sin(\omega \cdot t) \quad (2)$$

(2) ifodani m massasiga bo'lib yuboramiz

$$\ddot{\vartheta}_\tau = (g \cdot \cos \alpha - f \cdot g \cdot \sin \alpha) \cdot t - \frac{\kappa \cdot a \cdot \cos \alpha}{m \cdot \omega} \cdot \cos \omega t + c_1 \quad (3)$$

Boshlang'ich shartdan foydalanib, o'zgarmas s_1 differensial doimiysini aniqlaymiz. $t=0, \vartheta_\tau = 0 \Rightarrow c_1 = \frac{\kappa \cdot a}{m \cdot \omega}$ bu qiymatni (3) tenglikka qo'yamiz.




(3) ifodani vaqt bo'yicha integrallab, AB yoy bo'ylab kolosnik ta'sir oralig'ini paxta bo'lakchasini harakatini ifodalaymiz.

$$L = (g \cdot \cos \alpha - f \cdot g \cdot \sin \alpha) \cdot \frac{t^2}{2} - \frac{\kappa \cdot a \cdot \cos \alpha}{m \cdot \omega} \cdot (t + \frac{1}{\omega} \sin \omega t) \quad (4)$$


(3) va (4) ifodalardan paxta bo'lakchasini kolosniklardagi harakat tezligi va $AB=L$ uzunligi bo'yicha ta'sirini Maple dasturidan foydalanib, grafiklarda tahlili keltirilgan. Hisoblashlarda keltirilgan parametrlar: $g=9,81 \text{ m/c}^2$; $f=0,02$; $\alpha=30^\circ \div 45^\circ$ o'zgaradi, chunki kolosniklar diametri o'zgaruvchan bo'lganligi uchun $a=0,2 \text{ mm}$ tebranish amplitudasi kolosniklar uchun; P -tebranish chastotasi (kolosnik sirti bo'ylab); $\kappa = 0,8 \frac{N}{\text{mm}}$ paxta uchun.

Paxta bo'lakchasini kolosniklardagi harakat tezligi va $\widetilde{AB}=L$ uzunligi bo'yicha harakatini kolosnikni diametrining $d_2 = 12 \text{ mm}$ qiymatida hamda arrachali baraban burchak tezliklarini $\omega_3 = 4.5 \text{ rad / c}$ qiymatida yirik iflosliklardan tozalashda arrachali

baraban va kolosniklar orasidan o'tishdagi paxta oqimining bir tekisda uzatilishi ta'minlanganligini quyidagi grafiklarda ko'rishimiz mumkin.



1- paxta, 2- ifloslik
2-rasm. Paxta bo'lakchalaridan
ajralgan mayda iflosliklarni kolosnikni
diametrining turli qiymatlarida
kolosniklar soniga bog'liq grafigi.




3-rasm. Paxta bo'lakchalaridan
mayda iflosliklarni ajratishda
arrachali baraban burchak
tezliklarini turli xil
1- $\omega_1 = 2.5 \text{ pad} / c$; 2- $\omega_2 = 3.5 \text{ pad} / c$;
3- $\omega_3 = 4.5 \text{ pad} / c$ qiymatlarida
vaqtga bog'liq grafigi.

Qoziqchali barabandan uzatiladigan paxta bo'lakchalarining turli xil oraliqda joylashtirilgan kolosniklar ta'siridagi harakatini nazariy tahlil qilamiz. Kolosniklar oraliq masofalari 10-14 mm dan qilib takomillashtirib, mayda iflosliklardan tozalash samaradorlikka erishishda paxta bo'lakchasining A va B kolosniklar oraliqlaridan o'tish jarayoni 4-rasmda keltirilgan. Paxta bo'lakchalariga kolosniklar ta'sirida quyidagi tashqi kuchlar hosil bo'ladi.

$$F_{mq} = \frac{m \cdot g^2}{R} - \text{markazdan qochma kuch, N; } F_{xq} = k \cdot g^2 - \text{qarshilik kuchi, N; } m -$$

paxta bo'lakchasining massasi, kg; g - paxta bo'lakchasining tezligi, m/s;
 k - doimiy koeffitsiyenti $k_1 = \frac{s \cdot \rho \cdot S}{2 \cdot g}$ ga teng, kg/m; c - paxta bo'lakchasining qarshilik koeffitsiyenti; ρ - paxta bo'lakchasining zichligi, kg/m³; s - paxta bo'lakchasining yuzasi, m²; g - erkin tushish tezlanishi, m/s².



4-rasm. Kolosniklarga
paxta bo‘lakchalarini
ta’siri natijasidagi tashqi
kuchlarni dinamik
sxemasi

Yoy bo‘ylab joylashgan kolosniklardan o‘tuvchi paxta bo‘lakchasidan mayda iflosliklarni ajratishdagi differensial tenglamasini tuzamiz.

$$I \cdot \ddot{\phi} = (-F_{x,q} \cdot \sin \phi + F_{m,q} \cdot \cos \phi) \cdot L \quad (5)$$

Bu yerda $I = m \cdot L^2$ -paxta bo‘lakchasining inersiya momenti, A nuqtaga nisbatan inersiya momentini hisoblabmiz.

$$\ddot{\phi} = \frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(-\frac{k_1}{m} \cdot \sin \phi + \frac{1}{R} \cdot \cos \phi \right) \quad (6)$$

(6) tenglamada paxta bo‘lakchasining kolosniklar orasiga bog‘liq bo‘lganligi uchun harakat paytida paxta bo‘lakchasi kichik chegaralar oralig‘ida o‘zgarishi hisobiga $\sin \phi \approx \phi$; $\cos \phi = 1 - \phi$ deb qabul qilishimiz mumkin. Bu ifodalarni (14) tenglikka qo‘yamiz:

$$\ddot{\phi} = \frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(-\frac{k_1}{m} \cdot \phi + \frac{1}{R} \cdot (1 - \phi) \right) \quad (7)$$

(7) ifodani sodda ko‘rinishga keltirib, ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\ddot{\phi} + \frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(\frac{1}{R} + \frac{k_1}{m} \right) \cdot \phi = \frac{\vartheta^2}{R \cdot L} \quad (8)$$

(8) ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamani bir jinsli qismini hisoblaymiz. $\chi^2 = \frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(\frac{1}{R} + \frac{k_1}{m} \right)$ belgilash kiritamiz va (8) tenglikka qo‘yib, bir jinsli qismini hisoblaymiz:

$$\ddot{\phi} + \chi^2 \cdot \phi = 0 \quad (9)$$

(9) tenglama bir jinsli qismini $\alpha = e^{\lambda \cdot t}$; $\dot{\alpha} = \lambda \cdot e^{\lambda \cdot t}$; $\ddot{\alpha} = \lambda^2 \cdot e^{\lambda \cdot t}$ aniqlab, (9) tenglamani hisoblaymiz:

$$\lambda^2 + \chi^2 = 0 \quad (10)$$

(10) tenglama quyidagi ildizlarga ega bo‘ladi $\lambda_1 = -i \cdot \chi$; $\lambda_2 = i \cdot \chi$ bundan

$$\begin{aligned} \phi_1 &= C_1 \cdot \cos(\chi \cdot t) + C_2 \cdot \sin(\chi \cdot t) \\ \dot{\phi}_1 &= -C_1 \cdot \chi \cdot \sin(\chi \cdot t) + C_2 \cdot \chi \cdot \cos(\chi \cdot t) \end{aligned} \quad (11)$$

(11) tenglikdan C_1 va C_2 integrallash doimiylarini aniqlash uchun boshlang‘ich shartlardan foydalanamiz. Ya’ni $t = 0$ da $\phi_1 = \phi_0$ $\dot{\phi}_1 = \omega_0$ boshlang‘ich shartlarini (11) tenglikka qo‘yib, C_1 va C_2 aniqlaymiz.

$C_1 = \varphi_0$; $C_2 = \frac{\omega_0}{\chi}$ bu qiymatlarni (11) tenglikka qo'yib, bir jinsli qismidagi ifodagi aniqlaymiz:

$$\varphi_1 = \varphi_0 \cdot \cos(\chi \cdot t) + \frac{\omega_0}{\chi} \cdot \sin(\chi \cdot t) \quad (12)$$

(12) tenglik paxta bo'lakchasining oraliq masofalari 10-14 mm dan joylashtirilgan kolosniklar orasidagi paxta bo'lakchasining harakatining bir jinsli qismini tenglamasini ifodalaydi. (8) ifodadan foydalanib, xususiy yechimini quyidagicha ko'rinishda aniqlaymiz:

$$\varphi_2 = A \cdot t^2 + B \cdot t + C \quad (13)$$

(13) tenglikdagi A, B va C o'zgarmas qiymatlarni aniqlash uchun bu tenglikni (8) tenglikka qo'yib, aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \varphi_2 &= 2 \cdot A \cdot t + B \\ \dot{\varphi}_2 &= 2 \cdot A \end{aligned} \quad \text{bundan foydalanib,}$$




$$2 \cdot A + \frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(\frac{1}{R} + \frac{k_1}{m} \right) \cdot (A \cdot t^2 + B \cdot t + C) = \frac{\vartheta^2}{R \cdot L} \quad (14)$$

(14) tenglikni mos koeffitsiyentlarini tenglashtirib, A, V va S o'zgarmas qiymatlarni aniqlaymiz. $A = 0$; $B = 0$; $C = 0$ aniqlangan o'zgarmas qiymatlarni (13) tenglikka qo'yib, xususiy yechimini aniqlaymiz:

$$\phi_2 = 0 \quad (15)$$

Bir jinsli va xususiy yechimlaridan umumiy yechimini aniqlaymiz.


$$\phi = \phi_0 \cdot \cos\left(\sqrt{\frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(\frac{1}{R} + \frac{k_1}{m}\right)} \cdot t\right) + \frac{\omega_0}{\chi} \cdot \sin\left(\sqrt{\frac{\vartheta^2}{L} \cdot \left(\frac{1}{R} + \frac{k_1}{m}\right)} \cdot t\right) \quad (16)$$



1-ifloslik, 2-paxta
5-rasm. Paxta bo'lakchalaridan ajralgan mayda iflosliklarni kolosnik oraliq masofasini turli qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi.

(16) tenglikdan foydalanib, paxta bo'lakchalaridan mayda iflosliklarni samarali ajratishdagi harakatini Maple dasturidan foydalanib, grafiklarda tahlili keltirilgan. Hisoblashda quyidagi parametrlarni qiymatlari olingan: $\varphi_0 = 30^\circ$, $\omega_0 = 30 \text{ rad/s}$, $R = 240 \text{ mm}$, $m = 1.4 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$.

Paxta bo‘lakchasining kolosniklar bilan o‘zaro ta’sirlashishi, ya’ni kolosniklarning o‘zaro oraliq masofasi $l = 10 \div 14mm$ bo‘lgandagi ko‘rsatkichlarini hisobiy qiymatlari 5-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Paxta bo‘lakchalaridan ajralgan mayda iflosliklarni kolosniklarga urilish tezligini turli xil 1- $v_1 = 12 \text{ m/c}$; 2- $v_2 = 16 \text{ m/c}$; 3- $v_3 = 20 \text{ m/c}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi.

Yuqoridagi 5-6-rasmlarda keltirilgan grafiklardan shuni aytishimiz mumkinki kolosniklar orasidagi masofalarni rasional qiymatini to‘g‘ri tanlash orqali paxta bo‘lakchalari bilan kolosnikni o‘zaro ta’sirlanishi natijasida mayda iflosliklardan tozalash samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Grafiklarda kolosniklar orasidagi masofa $l_1 = 14mm$ bo‘lganda hamda paxta bo‘lakchasining kolosnikka ta’sir tezligining $v_1 = 12 \text{ m/s}$ qiymatida mayda iflosliklarni paxta bo‘lakchasidan ajralib, ifloslik bunkeriga uzatilishini jadallashishini ko‘rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning **“Takomillashtirilgan kolosnikli panjarani ishlab chiqish”** deb nomlangan bobida paxtani tozalash jarayonida ajralgan iflosliklarning tahlili, kolosnik turlari va texnologik jarayondagi joylashuvini tozalash samaradorligiga ta’sirini tadqiqi, kolosnikli panjara turlarining tozalash texnologiyasi bosqichlaridagi joylashuvining tozalash samaradorligiga ta’siri, paxta chiqindilari tarkibidagi paxta bo‘lakchalari va iflosliklarning arrali barabanlar seksiyalari bo‘yicha o‘zgarishi, uskunaning tozalash samaradorligini oshirishda regression modelini qurish ishlari olib borilgan.

Tashkent Cotton Textile agroklasterga qarashli Mustaqillik paxta tozalash korxonasida tozalash oqimi ikki qatordan iborat bo‘lib, bunda har bir tozalash oqimida 32ta qoziqchali baraban va 4ta yirik iflosliklardan tozalovchi arrachali seksiyalaridan iborat. Paxtani boshlang‘ich iflosligiga qarab tozalash jarayoni bitta oqim liniyasida yoki iflosliklar miqdori yuqori bo‘lganda, bir vaqtni o‘zida ikkita oqim liniyasida tozalash imkoniyati mavjud. Tahlil jarayonini birinchi navbatda har bir seksiyadan ajralib chiqayotgan iflosliklar ma’lum vaqt davomida alohida-alohida qilib, tarozida tortildi va uning tarkibi o‘rganildi. Bitta oqim liniyasida tozalash jarayonida arrachali seksiyalarga qo‘shilib tushadigan mayda iflosliklar ham alohida qilib olindi.

Tajribalar Sulton seleksiya navi, 1/3 sanoat naviga mansub iflosligi 8,54 % paxta xomashyosida o‘tkazildi. Paxta tarkibidagi iflosliklar miqdorini tozalash jarayonida o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

t/r	qaytalik	Paxta namligi %			Paxta iflosligi			1-batareya UXK		2-batareya UXK 32QB	
		Buntida	Barabandan keyin	Jin tarnovida	Buntida	Barabandan keyin	Jin tarnovida	Ish unumdorligi, t/soat	Iflogsigi %	Ish unumdorligi, t/soat	Iflogsigi %
1	1	9,33	8,66	8,44	8,79	7,81	0,73	7000	1,45	7000	0,99
2	2	9,22	8,57	8,09	8,89	7,87	0,8		1,52		0,97
3	3	9,2	8,55	8,21	8,91	7,9	0,76		1,20		1,04
4	oʻrta	9,25	8,59	8,25	8,54	7,86	0,94		1,49		1,0
Tozalash samaradorlik, %									81.0		87.27

Paxtaning iflosligi g'aram maydonida 8,54 %ni, quritish barabanidan so'ng 7,86 %ni va jin tarnovida 0,94 %ni tashkil etmoqda. Birinchi UXK tozalash majmuasida qayta ishlangan paxta iflosligi 1,49 %ni, majmuaning tozalash samaradorligi 81,0 %, ikkinchi UXK tozalash majmuasida esa paxta iflosligi 1,0 % va tozalash samaradorligi 87,27 % tashkil etishi kuzatildi.

UXK va 1XK uskunalarida ishlatiladigan qoziqchali barabanlar va arrachali baraban seksiyalarining ishchi qismlarining konstruksiyalarini barcha tozalash bosqichlarda o'zgarishsiz bo'lishi, tozalashni bir xil usulda davom etishiga olib kelib, tozalash samaradorligini pasayishiga olib kelishi aniqlandi.

Kolosniklarning turlarini tozalash samaradorligiga ta'sirini tadqiq etish maqsadida 5ta variantda tayyorlangan kolosnikli panjaralar tayyorlandi va "Tolali materiallarni dastlabki ishlash" kafedrasida qoshidagi o'quv-ilmiy laboratoriyada joylashgan UXK tozalash majmuasida tajribalar olib borildi. Tadqiqotlarda diametri 10 mm va kolosniklar orasi 6; 10; 14; 18 mm dumaloq shakldagi kolosnikli panjaralar, diametri 12 mm armatura va kolosniklar orasi 12 mm bo'lgan kolosnikli panjara, teshik o'lchamlari 6x50 mm bo'lgan to'rtli yuza va diametri 20 mm, kolosniklar orasi 40 mm dumaloq shakldagi kolosnikli panjara (mavjud)lardan foydalanildi (7-8-rasm).



7-rasm. Tozalash uskunasi o'rnatilgan tadqiqot variantidagi kolosniklarning ko'rinishi (d=10; l=14)

UXK tozalash uskunasi asosiy arrachali barabani ostiga barcha variantdagi kolosnikli panjaralar o'rnatilib, tadqiqotlar olib borildi. Paxta tozalash korxonalarida asosan 3 ta yoki 4 ta arrachali seksiyalardan iborat tozalash texnologiyalari foydalanilishini e'tiborga olib, laboratoriyada o'rnatilgan texnologiyadan ikki marta qayta o'tkazildi. Ikki marta o'tkazilgandan so'ng, arrachali barabanlar seksiyalaridagi

choʻtkali barabanlar harakati teskari tomonga yoʻnalitirilib, paxta faqat qoziqchali barabanlarda ikki marta qayta oʻtkazildi. Shunda jami, 4 ta arrachali barabanlar seksiyasi va 32 ta qoziqchali barabanlardan iborat texnologiyada tajribalar olib borildi. Tadqiqotlarda Sulton seleksiyasidagi 1 nav 2 sinfdagi dastlabki namligi 8.5 % va iflosligi 8,0 % boʻlgan paxta xomashyosidan foydalanildi.



Diametri 12 mm armatura va kolosniklar orasi
12 mm boʻlgan kolosnikli panjara



Diametri 10 mm va kolosniklar orasi
10 mm boʻlgan dumaloq kolosnikli panjara




Diametri 10 mm va kolosniklar orasi
6 mm boʻlgan dumaloq kolosnikli panjara



Diametri 10 mm va kolosniklar orasi
18 mm boʻlgan dumaloq kolosnikli panjara



Diametri 10 mm va kolosniklar orasi
14 mm boʻlgan dumaloq kolosnikli panjara




Diametri 20 mm va kolosniklar orasi
40 mm dumaloq kolosnikli panjara (mavjud)

8-rasm. Tadqiqotlarda foydalanilgan kolosniklarning koʻrinishi

Laboratoriya sharoitida oʻtkazilgan tajribalarda olingan namunalar Davlat standartlarida keltirilgan metodikalar asosida paxtadan namuna olish, namligi va iflosligi aniqlandi. Tajribalarda olingan natijalar 9-rasmda keltirilgan.

Olingan natijalarni tahlil qilsak, diametri 20 mm va kolosniklar orasi 40 mm boʻlgan dumaloq shakldagi kolosnikli panjara (mavjud) oʻrnatilgan texnologiyaning ish unumdorligi 3 tonna/soat boʻlganda tozalash samaradorlik I navda 80,69 %ni, III navda 83,73 %ni, 5 tonna/soat boʻlganda I navda 79,25 %ni, III navda 82,34 %ni, 7 tonna/soat boʻlganda I navda 78,12 %ni, III navda 81,17 %ni tashkil etmoqda.



9-rasm. Kolosnik turlarini texnologik jarayonning tozalash samaradorligiga ta'siri.

Tadqiqotlarda foydalanilgan kolosniklar orasidagi eng yuqori tozalash samaradorlik ko'rsatkichi dumaloq shakldagi kolosnikning diametri 10 mm va ularning oraliq masofasi 14 mm bo'lgan kolosnikli panjarada erishildi. Ish unumdorligi 3 tonna/soat bo'lganda, I navda 84,49 %ni, III navda 87,55 %ni, 5 tonna/soat bo'lganda, I navda 83,03 %ni, III navda 86,10 %ni, 7 tonna/soat bo'lganda, I navda 81,60 %ni, III navda 84,68 %ni tashkil etdi.

Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash jarayonida xomashyoga berilayotgan zarba kuchi ta'sirida tarkibidagi iflosliklar ajraladi. Bugungi kunda yirik iflosliklardan tozalash jarayonida foydalanilayotgan diametri 20 mm va oraliq masofasi 40 mm bo'lgan dumaloq shakldagi kolosnikli panjara tozalash texnologiyasining barcha bosqichlarida bir xil shakl va o'lchamlarda o'rnatilgan.

Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lumki, tozalash texnologiyasi bosqichlarida tozalanib borgan sayin paxta tarkibidagi iflosliklarning ajralishi qiyinlashib boradi. Bunga asosiy sabablardan biri paxta tarkibida tola bilan bog'lanishi kuchli bo'lgan aktiv iflosliklarning qolishi va tozalash texnologiyasini bir xil usulda amalga oshirilishida deb hisoblaymiz. Shuning uchun tozalash texnologiyasining ma'lum bosqichida shakli yoki o'lchamlarini o'zgartirilgan kolosniklarni o'rnatish orqali paxtaga berilayotgan zarba kuchi ta'sirini o'zgartirib, xom ashyo tarkibidagi iflosliklarni tozalash samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqotlar TTESI "Tolali materiallarni dastlabki ishlash" kafedrasida qoshidagi o'quv ilmiy laboratoriyasida oldingi bo'limda keltirilgan texnologiyada o'tkazildi. Tozalash texnologiyasidagi arrachali barabanlar seksiyasilariga tadqiqot variantlaridagi kolosniklar o'rnatilib, tajribalarda o'tkazildi. Tadqiqotlarda Sulton seleksiyasidagi 1 nav 2 sinfdagi dastlabki namligi 8.5 % va iflosligi 8,0 % bo'lgan paxta xomashyosidan foydalanildi. Tajribalarda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

UXK tozalash oqimining to'rtinchi arrachali seksiyasiga o'rnatilgan tajriba variantlaridagi kolosniklarda eng yuqori ko'rsatkich kolosnikning diametri 10 mm va ularning oraliq masofasi 14 mm bo'lgan kolosnikli panjarada erishilmoqda. Mavjud

variantdagi kolosnikli panjaraga nisbatan tozalash samaradorlikning o'sishi ish unumdorlik 3 tonna/soat bo'lganda 4,89 %, 5 tonna/soatda 4,65 %ga va 7 tonna/soat 4,43 % bo'lishiga erishilmoqda.


2-jadval

Arrachali barabanlar seksiyalariga o'rnatilgan tadqiqot variantlaridagi kolosniklarni tajriba natijalari

t/r	Ko‘rsatkichlar	Koloslarning diametri (d) va oraliq masofasi (l)					
		d=20 l=40	d=12 l=12	d=10 l=6	d=10 l=10	d=10 l=14	d=10 l=18
Ish unumdorlik, 3 tonna/soat							
1.	Tozalash samaradorlik, %	83,19	82,90	82,43	84,81	87,03	86,62
		83,20	83,57	83,07	85,28	87,63	87,17
		83,16	83,73	83,21	85,43	87,81	87,3
		83,17	83,86	83,33	85,59	88,06	87,42
Ish unumdorlik, 5 tonna/soat							
2.	Tozalash samaradorlik, %	81,91	80,79	81,14	83,38	86,11	85,21
		81,93	81,35	81,68	83,93	86,29	85,84
		81,89	81,49	81,83	84,1	86,45	85,96
		81,92	81,65	81,98	84,28	86,57	86,13
Ish unumdorlik, 7 tonna/soat							
3.	Tozalash samaradorlik, %	80,83	80,36	80,12	82,30	84,15	83,77
		80,81	80,8	80,57	82,67	84,81	84,42
		80,84	80,97	80,71	82,83	84,95	84,57
		80,79	81,12	80,84	83,01	85,22	84,76

Izoh: jadvalning 1,2,3 qatorlarida 1,2,3,4-arrachali barabanlar seksiyalariga o'rnatilgan tadqiqot variantlaridagi kolosniklarni tajriba natijalari keltirilgan.


Tozalash texnologiyasining birinchi va to'rtinchi arrachali seksiya barabanlari ostiga o'rnatilgan kolosnik turlarining tozalash samaradorligiga ta'siri tahlil etsak (10-rasm), eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etilgan diametri 10 mm va oraliq masofasi 14 mm bo'lgan kolosnikli panjarada birinchi va to'rtinchi arrachali seksiyalardagi joylashuvda tozalash samaradorliklarning o'zaro farqi 1,07 %ni, mavjud variantdagi kolosnikka nisbatan esa 4,43 % ga yuqori bo'lishiga erishilmoqda.



10-rasm. Kolosnik turlarining tozalash texnologiyasining bosqichlaridagi joylashuvini tozalash samaradorligiga ta'siri.

Yirik iflosliklarni tozalash jarayonida ajralgan chiqindilar tarkibidagi paxta bo'lakchalari va iflosliklarning arrali barabanlar seksiyalarida o'zgarishini tadqiq qilish uchun paxtaning S-6524 seleksiya navidagi namligi 8,14; 9,2 %, iflosligi 7,51; 13,1% xomashyoda tadqiqotlar olib borildi. UXK tozalash majmuasining arrali

barabanlar seksiyalardiga diametri 10 mm va kolosniklarning orasi 14 mm, hamda arrachali baraban va kolosnik panjara orasidagi masofa 14 mm qilib, pruddan kolosnik panjaralar tayyorlanib, o'rnatildi. Tadqiqot natijalari 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Paxta chiqindilari tarkibidagi paxtalar bo'lakchalarini arrachali baraban seksiyalari bo'yicha o'zgarish grafigi.

I va II-mavjud variantdagi kolosnikli panjara, III va IV-takomillashtirilgan kolosnikli panjara.

Tozalash texnologiyasining 4-arrachali barabanlar seksiyasiga o'rnatilgan kolosnik diametri 10 mm va ularning orasi 14 mm bo'lganda tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar tarkibida paxta bo'lakchalarining miqdori mavjud kolosnikka nisbatan navda 13,64 % ga va navda 15,39 % ga kam chiqishiga erishilgan. Ya'ni, iflosliklarga qo'shib ketayotgan paxta bo'lakchalari miqdori kamaymoqda.

